



3/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

3/2024

Ochilov U.S., Salimova H.H.	Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” asarlaridagi ona obrazlarida milliy qadriyatlarining ifodalanishi	148
Rajabov A.O‘., Jalilova L.J.	Artistic psychologism in the works of J. Barnes	153
Khodjaeva D.I., Khametov I.R.	Romantic literature and the exploration of human nature relationship	159
Nasriyeva G.Z.	Amerika adabiyotida shaxs va jamiyat munosabatlari mavzularida ijod etgan namoyondalar	166
Ne‘matova S.	Boburning insonshunoslik xususidagi qarashlari	170
Sidorkova L.R., Mekhriddinova O.Kh.	Temporal dimensions and their manifestation within the idiostylistic framework of M.Y.Lermontov: an examination of temporality’s role and evolution	175
Астанова Г.А.	“Минг бир кеча” асарининг хх асп ўзбек адабиётига бадий таъсири	183
Oripova K.D.	Adabiyotshunoslikda yozuvchi biografiyasi va bola psixologiyasining o‘ziga xosligi	188
Haydarova N.A.	Tarjimada interdiskursivlikni qayta yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari	192
Asgarova G.	Secret signatures of Nakhchivan correspondents and writers of “Molla Nasreddin”	196
Саидова Н.З.	Знаки и символы в повести Т.Пулатова «Окликни меня в лесу»: глубинный анализ	204
Qosimova N.F., Haydarova G.R.	Tarjima sifatini oshirishda tarjima strategiyalarining roli	209
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Latipova S.A.	“Me’rojnomayi turkiy” – ilmiy-adabiy manba sifatida	213
“NAVOIY GULSHANI”		
Bekova N.J., Gulliyeva N.Z.	Navoiyning forsiy va turkiy she’riyatida irfoniy g‘oyalarning badiiy talqinlaridagi o‘xshashlik	217
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Niyozov A.K., Baxranova D.A.	Tanqidiy fikrlash g‘oyasining etimologiyasi va kelib chiqishi	223
Sadullaeva M.A.	Number as the essence of things: Pythagorean philosophy	227
Muydinov D.N.	Yevropada irqchilik va ksenofobiyaning ortishi sabablari va oqibatlari	231
Селюгина К.В.	Некоторые особенности нарциссических защит у релокантов из России в Республике Кыргызстан	238
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Ergashov Z.B., Yakubov R.Y., Sultonov Z.N.	Birinchi rennesans davrida qomusiy allomalarimizning ilmiy faoliyati	245
Mamadjonov A.B.	O‘zbekiston Turkiya munosabatlarida yangicha nuqtayi nazar	250
Mubinov M.A.	The brief review of works by english-speaking authors on the history of the Bukhara emirate	255
Umarov B.B.	Buxoro shahrining somoniylar davridagi tarixiga oid manbalar tahlili	259
Таирова М.Х.	Истоки фармацевтики и основатели	264
Abdullaeva D.A.	XX asrning 20-40-yillarida Ark qo‘rg‘onining ta’miranish tarixi	270
Жуманиязов И.Р.	Қорақалпоғистонга чанг чолғу асбобининг кириб келиши ва ривожланиши	274

**BUXORO SHAHRINING SOMONIYLAR DAVRIDAGI
TARIXIGA OID MANBALAR TAHLILI****Umarov Baxtishod Baxridin o‘g‘li,***Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrası tayanch doktoranti**b.b.umarov2019@buxdu.uz**ORCID ID:0000-0002-0501-3789*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Arab xalifaligi zaiflashganidan so‘ng Movarounnahrda hukmronlikni o‘z qo‘liga olgan mahalliy sulola –Somoniyalar davrida islom madaniyati markazlaridan biriga aylangan Buxoro shahrining IX-X asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti haqida ma‘lumot beruvchi manbalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Somoniyalar, Abu Bakr Narshaxiy, “Buxoro tarixi”, Ahmad al-Jayhoni, “Ashkol ul-alam”, Abu-Dulaf, Istaxriy, Buxoro, Movarounnahr, sayohatlar.*

**АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ ПО ИСТОРИИ ГОРОДА БУХАРЫ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ
САМАНИДОВ**

Аннотация. в данной статье говорится об источниках, дающих сведения о социально-экономической и культурной жизни города Бухары в IX-X веках, ставшего одним из центров исламской культуры в период правления местной династии Саманидов, захватившей власть в Мевараннахре после ослабления Арабского халифата.

Ключевые слова: *Саманиды, Абу Бакр Наршахи, «История Бухары», Ахмед аль-Джейхани, «Ашколь уль-Алам», Абу-Дулаф, Истахри, Бухара, Мевараннахр, путешествия.*

**ANALYSIS OF SOURCES ON THE HISTORY OF BUKHARA CITY DURING THE PERIOD
OF SAMANID RULE**

Abstract. This article deals with the sources that provide information about the socio-economic and cultural life of the city of Bukhara in the IX-X centuries, which became one of the centres of Islamic culture during the reign of the local Samanid dynasty that seized power in Transoxiana after the weakening of the Arab Caliphate.

Keywords: *Samanids, Abu Bakr Narshahi, "History of Bukhara", Ahmed al-Jayhani, "Ashkol ul-Alam", Abu-Dulaf, Istakhri, Bukhara, Movarounnahr, travels.*

Kirish. Arab xalifaligida Abbosiylar hokimiyati o‘zining oldingi qudratini yo‘qotgan bir paytda Movarounnahr mintaqasida mahalliy hukmronlikni o‘z qo‘liga olgan sulolalar orasida Somoniyalar davlati o‘ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Dastavval, Movarounnahr, keyinchalik Xurosonda hukmronlikni qo‘lga olgan Somoniyalar tarixiga oid manbalar va adabiyotlarni o‘rganish bir necha o‘n yillardan beri dolzarb mavzu bo‘lib kelmoqda. Maqolada Somoniy boshqaruvi davrida Movarounnahr, xususan, Buxoro shahrida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy va madaniy hayot to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi manbalar va tarixiy asarlar tahlili bayon qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alohida tadqiqot doirasida o‘rganilayotgan ushbu mavzuni yoritishda quyidagilardan foydalanildi:

1. O‘rta asrlar arab va fors manbalari tarjimalari
2. Sovet davri tadqiqotlari natijalari
3. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiylik, xolislik, ma‘lumotlarni tizimlashtirish kabi metodlardan foydalanilgan

Tahlil va natijalar. Ilk o‘rta asrlarning so‘ngiga kelib, Movarounnahr, Xuroson va unga tutash mintaqalarda Tohiriylar, Safforiylar, Somoniyalar, Qoraxoniylar hamda G‘aznaviylar kabi bir qancha qudratli sulolalar, davlatlar va noibliklar faoliyat yuritgan. Bular orasida IX asr oxiri – X asr davomida Movarounnahr

HISTORY

va Xurosonni idora etgan Somoniylar sulolalasining hokimiyat tepasiga kelish tarixi, o'ziga xos xususiyatlari va shaharsozlik rivoji bo'yicha olib borilgan bunyodkorlik ishlari bilan farq qiladi.

Somoniylar sulolasining O'rta Osiyodagi hukmronlik davri (IX-X asrlar) yirik tarixiy jarayonlarni o'z ichiga olganligi bilan ahamiyatlidir. Chunki Buxoroni Islom dunyosi markazlaridan biriga aylanishi, yirik shaharlarda madaniy va ilmiy muhitning rivojlanishi uchun sharoitlarning vujudga kelishi, mahalliy xalqlarning islom davridagi davlatchilik asoslari yaratilishi shu davrda yuz berdi. Yozma manbalarda Somoniy hukmdorlar va ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar, sulola boshqaruvi davridagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol haqida batafsil ma'lumotlar mavjud[15,4]. Ushbu manbalar shuningdek, IX-X asrlardagi Somoniylar markazi Buxoro shahri tarixi va topografiyasi yoritishga ham xizmat qiladi.

Movarounnahrning Somoniylar hukmronligi davri tarixi haqida birinchilardan bo'lib, o'zining "Tarixi Buxoro" ("Buxoro tarixi", "Narshaxiy tarixi") asari bilan Abu Bakr Narshaxiy batafsil ma'lumot berib o'tadi. Asarini 943 – 944-yillarda arab tilida yozilgan va uni shu yillarda taxtga o'tirgan Somoniylar davlati hukmdori Amiri Hamid, ya'ni Abu Muhammad Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoni (943-954)ga bag'ishlagan [1,13]. "Buxoro tarixi" asarining o'zida ham, boshqa tarixiy manbalarda ham muallifning hayoti va faoliyatiga doir biror kengroq ma'lumot uchramaydi. Faqat XIII asr muallifi Sam'oniyning "Kitob ul-ansob" asarida uning to'la ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik ekanligi va u Buxoro ahlidan (Narshax qishlog'idan) bo'lib, 286 hijriy (899 milodiy) yili tavallud topgan va 348 (959) yili vafot etganligi eslatiladi[2,133-134].

"Buxoro tarixi" ning asl nusxasi ya'ni Narshaxiy tomonidan yozilgan nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Asarning bizgacha yetib kelgan qismi farg'onalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Qubaviy hamda Muhammad ibn Zufar ibn Umar tomonlaridan qisqartirilib tarjima qilingan[12,143]. Tarjimonlar asarni qisqartirish bilan birga IX asr mualliflaridan Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning "Tarixi Tabari", Abulhasan Abdurahmon ibn Muhammad Nishopuriyning "Xazoin ul-ulum" hamda Abu Is'hoq Ibrohim ibn al-Abbos as-Suliyning "Axbori Muqanna" nomli asarlaridagi ma'lumotlar bilan to'ldiradi[9,164]. Buning natijasida Buxoro va Movarounnahrning IX-X asrgacha bo'lgan tarixiga oid kerakli qo'shimchalar kiritilganligi bilan birga Somoniylar davridan keyingi ikki yuz yillik tarixiy voqea hodisalar umumiy kontekstda kiritilganligini ko'rishimiz mumkin.

Narshaxiy kitobida asosan Buxoroning obod makonga aylanishi, dehqonchilikning aholi tomonidan kasb etilishi, Poykand, Varaxsha, Romiton, Vardona kabi qadimiy qishloqlarning barpo bo'lishidan, Buxoro shahrining qad ko'tarishi va islom dini markazlaridan biriga aylanishigacha bo'lgan tarixiy voqealar to'g'risida muhim ma'lumotlar bayon qilinadi. Asarning turli boblarida shaharning siyosiy hayotdagi o'rni, Buxoro va unga qo'shiladigan joylar, shahardagi "Bayt-ut-tiroz" to'qimachilik korxonasi, Moh bozori, somoniy hukmdorlar tomonidan bunyod etilgan "Jo'yi mo'liyon" tavsifi, shaharni dushmanlardan himoya qilish maqsadida bunyod etilgan darvozalar haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Shuningdek, kitobda Buxoroning fath etilishi va islom dinining kirib kelishi, Movarounnahrda dastlabki masjidning bunyod etilishi, Buxoroning qadimiy darvozalari va qadamjolari, Somoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi, Ismoil Somoniy davrida Buxoroning markazga aylantirilishi hamda keyingi somoniy hukmdorlar tomonidan amalga oshirilgan madaniy qurilishlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Buxoro hisorning g'arbiy darvozasidan to Ma'bad darvozasigacha bo'lgan masofa Registon deb atalib, qadim johiliyat davrlaridan beri podshohlarning saroylari bo'lganligi, faqatgina Nasr II davrga kelib, mahkamalar uchun maxsus saroy Registon qurilganini ham aynan Narshaxiy asari orqali bizgacha yetib kelgan[19,258-261]. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib ayta olamizki, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari shaharda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar haqida to'liqligicha ma'lumot bera oladi.

2011-yil "Buxoro tarixi" asarining Sh.Kamoliddin va A.Nekrasova tahriridagi tarixiy hamda arxeologik-topografik izoh va sharhlari bilan to'ldirilgan versiyasi nashr qilingan bo'lib[14], unda asarda keltirilgan ma'lumotlar manbalar va zamonaviy tadqiqot natijalari bilan boyitilgan.

Somoniylar silsilasi, ularning hokimiyat tepasiga kelishi va mamlakatda olib borilgan bunyodkorlik ishlari haqida ma'lumot beruvchi navbatdagi manba Abu Abdullo Muhammad ibn Ahmad al-Jayhoniyning "Ashkol-ul-olam" hisoblanadi. Tarixiy asarlarda Ahmad al-Jayhoniyning "Kitob al-masolik val-mamolik" nomli asari xususida ham ma'lumotlar keltiriladi[13,149]. Al-Jayhoniyning ushbu asarlari bevosita Buxoro shahri tarixi haqidagi ma'lumotlarni ham o'zida jamlagan.

Somoniy hukmdor Nasr ibn Ahmad (914-943) davrida 914-yildan umrining oxirigacha bosh vazir lavozimida ishlagan Ahmad al-Jayhoniyning qachon tug'ilganligi haqida ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. U bosh vazirlik davrida, boshqa davlatlarni (asosan, g'ayridinlar hududlarini) bosib olish uchun o'sha hudud odamlarini yig'ib, ulardan davlatning daromat manbalari, u mamlakatga olib boradigan yo'llar, yulduzlarning joylashuvi hamda kun chiqish va kun botish vaqtlari haqida ma'lumotlarni to'plagan, sababi

HISTORY

hujum qilish uchun ularning daromadi, moliyaviy holati va joylashuv koordinatalarini bilish lozim bo'lgan [8, 219-220]. Astronomiya va geografiyaga bo'lgan qiziqishi va to'plab borgan ma'lumotlari asosida Somoniylar davri tarixiy geografiyasi va topografiyasiga oid asarlar yozib qoldirgan. Ko'pgina tarixchilar, jumladan, V.V.Bartold va I.Y.Krachkovskiyilar Jayhoniylarning asarlari bizgacha yetib kelmagan degan fikrni ilgari surishgan[10,75]. Muqaddasiy, Ibn Havqal va Gardiziy singari mashhur sayyoh va geograflarning asarlarida Jayhoniylardan iqtiboslar keltirilganligi bir guruh tarixchilarning jiddiy e'tiborini tortib, uning asarlarini izlab topishga qiziqishni oshirib yuborgan.

XX asr 50-yillarida Ahmad al-Jayhoniylarning "Ashkol ul-olam" asarining to'liq nusxasi Afg'onistondan topiladi. Mashhur sharqshunos olim V.F.Minorskiy 1948-yil "Ashkol ul-olam" va uning muallifi haqida maqola e'lon qilib, mazkur asarning ikki nusxasi Britaniya kutubxonasida saqlanayotganligini xabar qiladi[3,16].

Feruz Mansuriy 1999 yili Abu-l-Qosim ibn Ahmad al-Jayhoniylarning «Ashkol al-olam» asarining forscha tarjimasini nashr qildiradi. Asarni nashrga tayyorlashda qo'lyozmadagi nuqsonli o'rinlarni "Kitab al-masalik val-mamalik"ning forscha tarjimasini bilan to'ldiradi. Bu nashr tadqiqot qismi va ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan.

Nodir manba sifatida "Ashkol ul-olam" asari juda qimmatlidir. Asarda Somoniylar davrida shaharlardagi hayot, Movarounnahr va unga tobe hududlar, Hind va Sind daryobo'yi xalqlari bilan olib borilgan savdo ishlari, shuningdek, poytaxt – Buxoroda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, darvozalar, rabotlar, ariqlar qurilishi va o'lka iqlimi haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tiladi. "Buxoro tarixi" va "Ashkol ul-olam" asarlaridagi ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, bir qancha o'xshash va farqli jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, har ikkala asardagi tarixiy voqea-hodisalar mo'g'ullar istilosi ya'ni 1220-yillargacha davom etganligi hamda amirlar uchun yozilganligi o'ziga xos o'xshashlik bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot shuningdek, tarixiy voqealar ketma-ketligi, tarixiy jarayonlarni ochib berilishi jihatidan "Buxoro tarixi" ancha mufassil yoritilgan bo'lsa, "Ashkol ul-olam" da ko'proq mintaqa iqlimi, shaharlar joylashuvi, yirik savdo shaharlari orasidagi masofalar, Buxorodagi qurilish ishlari haqida so'z yuritilgan.

Ahmad al-Jayhoniylar bilan birga Nasr ibn Ahmad saroyida xizmat qilgan olimlardan yana biri bu Abu Dulafdir. Olim tomonidan yaratilgan asarlar ham Somoniylar davlatining IX-X asrlardagi hayoti haqida ma'lumot beruvchi kam tadqiq etilgan manbalardan sanaladi.

Abu Dulafning asl ismi Mis'ar ibn Muhallil al-Hazrajii al-Yanbuiydir. U X asr boshlarida Buxoroga keladi va shoir sifatida somoniy hukmdor saroyiga xizmatga kiradi. 942-yil Buxorodan qaytayotgan Xitoy elchilari bilan birga sayohatga o'tlanadi va bu qarorni hukmdor Nasr II ibn Ahmad qo'llab-quvvatlaydi. Sababi Somoniylar davlatining Xitoy va boshqa sharq mamlakatlari bilan manfaatli aloqalar olib borishi uchun muhim ma'lumotlarga ega bo'lish lozim edi. Sayyoh elchilar bilan dastavval Sharqiy Turkiston orqali Xitoy poytaxtiga, undan so'ng Hindistonga boradi[4,10]. Abu Dulaf Somoniylar poytaxti – Buxorodan Xitoy va Hindistonga qilgan safari vaqtida ko'rgan bilganlarini "Risalat ul-avval" nomli kitobga yozib qoldiradi[13,95]. Asar somoniy Nasr ibn Ahmadga shoh as-Sin, ya'ni Sandabil (Kansu)lik uyg'ur hukmdori ikki sulola o'rtasida nikoh shartnomasi tuzishni so'ragan elchilarning kelishi tasviri bilan boshlanadi[15,62]. Aynan shu elchilar bilan keyinchalik sayohatga chiqadi[5,5]. Diplomatik munosabat shaklidagi ushbu aloqa somoniylar davridagi deyarli yagona holat hisoblanadi. Abu Dulaf asari ma'lumotlari Somoniylar davrida savdo munosabatlarining rivojlanganligi, Buxoro esa karvon yo'llari ustidagi yirik savdo markaziga aylanganligini tarixiy isboti bo'la oladi.

Sayyohning "Risalat ul-avval" asaridan tashqari "Risalat ul-uxro" nomli yirik asari ham bo'lib, unda X asr O'rta Osiyo tarixi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan[11,181]. Aynan ushbu ikkinchi asarida Abu Dulaf 942-952-yillari O'rta Osiyo va Eron bo'ylab qilgan sayohat tavsilotlarini yozib qoldirilgan. Somoniylar va ularga qo'shni mamlakatlardagi shaharlar va osori-atiqalar haqida xabar beruvchi "Risalat ul-uxro" ("Ikkinchi Risolat", "Ikkinchi eslatma") asarining ayrim parchalari Yoqut Hamaviy hamda Zakariyo ibn Muhammad ibn Qazviniy asarlarida saqlangan[16,18].

Turk olimi Shamsiddin Somiy "Jug'rofiya fanining otasi" deya ta'rif bergan [7,991] geograf olim – Ixtariyning X asr Yevropa, Osiyo va Afrika, shuningdek, Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi va topografiyasini yorituvchi "Kitob al-masalik val-mamalik" asari ham Somoniylar davri bo'yicha yirik manba hisoblanadi.

O'rta Osiyoning IX – XIII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti, hududlar tarixiy topografiyasi bo'yicha asosiy ma'lumotlarni arab tilidagi manbalar beradi. "Kitob al-masalik val-mamalik" tarixiy-geografik asari bu borada muhim ahamiyatga ega manbalardan hisoblanib, "Movarounnahr" iqlimida to'rt yuzga yaqin joy nomi zikr etilishining o'zi uning manbaviy ahamiyati qanchalik katta ekanini ko'rsatib

HISTORY

beradi [6,68]. “Kitob al-masolik val-mamolik” yigirma bobdan iborat bo‘lib [12,120], asarda 22 mamlakat va viloyatning geografik xaritasi ham ilova qilingan [18,249-252].

Istaxriy o‘z asarida Buxoro haqida juda ko‘plab ma‘lumot va sifatlarni berib o‘tadi. Xususan, islom o‘lkalarida Buxorosidan yaxshiroq shahar borligini ko‘rmaganligi, Xuroson va Movarounnahrda unumdor va yaxshi haydaladigan yerlarning ham Buxoroda bo‘lganligi, qishloq va ekinzorlari 10 farsax masofada devor bilan o‘ralganligini qayd etadi [6,133-134]. Bu bilan Istaxriy Somoniylar davrida Buxoro ancha obod bo‘lganligi, sug‘orish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi va xalifalikdagi eng taraqqiy etgan shaharlardan biriga aylanganligi e‘tirof etadi.

Buxoro toponimi, uning joylashuv joyi, tili, xo‘jaligi, aholi turar-joylari, qasrlar va yo‘llar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan bir qatorda sayyoh qaydlarida Buxoroda g‘itriy, musayyibiyya va muhammadiya dirhamlaridan foydalanilganligi, shuningdek, Buxoroning Tohiriylardan tortib olinishi, Ismoil Somoniyning Xuroson hukmdoriga aylanishi va markazni Buxoroga ko‘chirishi kabi iqtisodiy-siyosiy hayot bilan bog‘liq tarixiy voqealar ham keltirib o‘tiladi.

So‘nggi yillarda tarixiy manbalar va xaritalarga bo‘lgan qiziqish, tarixga yangicha yondashuvlarning samarasi o‘laroq 2019-yilda R.T.Xudoyberganov muallifligida “Kitob al-masolik val-mamolik” asarining “Movarounnahr” va “Xuroson” iqlimlari qismi tarjima qilindi va Toshkentda o‘zbek tilida o‘rta asr sayyoh va geograf olimlari, xususan, al-Istaxriyning bizgacha yetib kelgan qo‘lyozma nusxalaridagi islom dunyosining turli mamlakatlari xaritalariga bag‘ishlangan kitob nashr etildi [17,8].

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni qayd etishimiz mumkinki, IX-X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan mahalliy sulola – somoniylar davridagi chegaralar, davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, harbiy salohiyatdagi o‘ziga xos xususiyatlariga bo‘lgan qiziqish doim dolzarbliligi bilan ajralib turadi. Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Ahmad al-Jayhoniyning “Ashkol ul-olam”, Abu Dulafning “Risalat ul-avval”, “Risalat ul-uxro”, Istaxriyning “Kitob al-masolik val-mamolik” asarlari Movarounnahr, xususan, islom madaniyati markazlaridan biri Buxoro shahri tarixi, uning markazga aylanishi, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi mavqei, shuningdek, shaharning darvozalari, rabotlari, ariqlari va shaharlari orasidagi masofalar haqida qimmatli ma‘lumotlar beruvchi manbalar hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. *Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро Тарихи. –Т.: Шарқ баёзи, 1993. –122 б.*
2. *Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. «Насабнома» (ал-Ансоб). (VIII-XII асрда яшаган Ўзбекистонлик олимлар ҳақида маълумот). –Тошкент: “Hilol-nashr” нашриёти, 2017. -335 б.*
3. *Абу Абдулло Муҳаммад бинни Аҳмад ал-Жайҳоний. Ашкол-ул-олам. – Бухоро: “Sadriddin Salim Buxoriy” нашриёти, 2022. -56 б.*
4. *Вторая Записка Абу Дулафа / Издание текста, перевод, введение и комментарии П.Г.Булгакова и А.Б.Халидова. М., 1960. – 107 с.*
5. *Григорьев, В. В. Об арабском путешественнике X века, Абу-Долефе, и странствовании его по Средней Азии // Журнал Министерства Народного Просвещения. Часть CLXIII / В. В. Григорьев. – Санкт-Петербург : Тип. В.С. Балашева и К, 1872. – 48 с.*
6. *Истахрий. Китоб ал-масолик вал-мамолик. Араб тилидан Худойбергано в таржимаси. Т.: “Фан”, 2019. -375 б.*
7. *Sâmi Ş. Kâtûsü'l-a'lâm, C.2, Mihran Matbaasi, İstanbul 1307/1889. –S.2401-3200.*
8. *Крачковский И. Ю. Избранные сочинения. Том IV. Редактор IV тома: Г. В. Церетели. Москва–Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1957, 919 с.*
9. *Смирнова О. И. Некоторые вопросы критики текста («Сборник летописей» Рашид ад-Дина, Шах-наме Фирдоуси и «История Бухары» Наршахи)//Письменные памятники Востока / Историко-филологические исследования. Ежегодник 1968. М.: Наука, ГРВЛ, 1970. -С. 155–165.*
10. *Мухторов А. Амирон ва вазирони Сомонӣ. – Душанбе, 1997. –77 с.*
11. *Фитрат А. Танланган асарлар. II жилд. – Т.: Маънавият, 2000. -208 б.*
12. *Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 352 б.*
13. *Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Т.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. -264 б.*

14. *Абу Бакр Мухаммад ибн Джа‘фар ан-Наршахи. Та’рих-и Бухара. История Бухары. Перевод, комментарии и примечания Ш.С.Камалиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г.Некрасовой. — Ташкент: SMIA-SIA, 2011. -600 с.*
15. *Ш.С.Камалиддин, З.А.Илхамов. Саманиды: из истории государственности Узбекистана в IX – X вв.. – Т.: 2018. -193 с.*
16. *Ш.С.Камалиддин, З.А.Илхамов. Источники по средневековой истории средней азии. Учебно-методическое пособие. Т.:2018. -81 с.*
17. *Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нодир китоблар коллекцияси 2-тўплам/масъул муҳаррир У. Тешабаева.-Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси,2020. -92 б.*
18. *Собиров Н. И. Сведения арабских путешественников и географов об истории и культуры верховьев Зеравшана в источниках IX-XII вв //Вестник Педагогического университета. – 2020. – №. 4 (87). – С. 249-252.*
19. *Umarov V. Abu Bakr Narshaxiy asarida Buxoro shahri tavsifi // FarDU. Ilmiy xabarlar. 2023. №-2. –В.258-261.*